

ULUGBEK HAMDAMNING “SO‘Z” HIKOYASIDA RAMZIY OBRAZLAR ORQALI “BE‘MANILIK” KONSEPTINING IFODALANISHI

G‘aniyeva Shoira Ergash qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1-bosqich 5.25-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: N.Karimova

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Til va adabiyot kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining iste’dodli vakillaridan biri bo‘lgan Ulug‘bek Hamdamning "So‘z" hikoyasida ramziy obrazlar orqali inson ruhiyatidagi ma‘no inqirozi tahlil qilinadi. Tadqiqot orqali "bemanilik" tushunchasining oddiy bahodan butun umrni inkor etuvchi darajaga yetishi jarayoni yoritiladi.

Kalit so‘zlar. be'manilik, ramziy obraz, psixologik tahlil, ma'no inqirozi, badiiy tafakkur.

Badiiy adabiyotda ramziy obrazlar muallif g‘oyasini bevosita emas, balki bilvosita va chuqur qatlamlarda ifodalash imkonini beradi. Tahlil qilinayotgan hikoyada inson hayotining ma‘nosizlashuvi jarayoni oddiy voqea yoki dialog orqali emas, balki murakkab ramzlar tizimi orqali ochib beriladi. Ayniqsa, “bema‘ni” so‘zining qo‘llanishi qahramon hayotida keskin burilish yasab, uning butun o‘tmishi va hozirgi hayotiga salbiy baho berilishiga sabab bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi — matndagi barcha asosiy ramziy obrazlarni aniqlash va ularning g‘oyaviy hamda psixologik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu hikoyada inson ruhiyati va ma'naviy qadriyatlarni yoritish yetakchi o‘rinda turadi. Bu jarayonda yozuvchi turli badiiy vositalar va ramziy obrazlardan foydalangan. Hikoyada so‘zning inson hayotidagi o‘rni, uning ma'naviy kuchi va inson ruhiyatiga ta'siri haqida falsafiy mazmun mavjud.

Hikoyani o‘rganish jarayonida bir- biri bilan uzviy bog‘langan ramziy obrazlar aniqlandi, ularning har biri alohida ma‘no yukini ifodalash bilan birga, o‘zaro uyg‘unlashgan holda asarning umumiy g‘oyaviy yo‘nalishini — inson ongidagi ma‘no inqirozi va ruhiy yemirilish jarayonini bosqichma-bosqich ochib berishga xizmat qiladi. Quyida ularni kurib chiqamiz.

Ostonada ularga yangilangan fasl peshvoz chiqdi. “Iya, xotinjon, qara, kuz ham keb qoptiyu, o‘zimiz bilan bo‘lib payqamabmiz ham” - dedi er dov-daraxtlarning oltin

ranglariga qarab-qarab. - “Yo‘lda ham e‘tibor qilmaganimizni-chi...” Mazkur parcha badiiy matnda fasl almashinuvi orqali inson ruhiyatidagi o‘zgarishlarni chuqur ifodalab beradi. “Ostonada ularga yangilangan fasl peshvoz chiqdi” jumlasida tashqi voqelik bilan ichki kechinmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ostonaning o‘zi ham ramziy ma‘noga ega bo‘lib, u ikki holat — o‘tmish va hozirgi zamon, eski hayot va yangi bosqich o‘rtasidagi chegarani bildiradi. Demak, qahramon aynan shu nuqtada hayotining yangi, ammo murakkab davriga qadam qo‘ymoqda.

Kuz obrazi matnda alohida semantik yukni ko‘taradi. Erkakning “kuz ham kelibdiyu, o‘zimiz bilan bo‘lib payqamabmiz ham” degan e‘tirofi bevosita ramziy mazmunga ega. Bu yerda kuz faqat yil fasli emas, balki inson hayotidagi ma‘naviy sovuqlashuv, his-tuyg‘ularning so‘nishi va ichki bo‘shliqning kuchayishini anglatadi. Qahramonlar bu faslni “payqamay qolganliklari” orqali esa muhim bir haqiqat ochiladi: inson ko‘pincha o‘z hayotidagi keskin o‘zgarishlarni vaqtida anglamaydi.

Bir pasdan so‘ng er xotining qo‘lidan tutib, pastga - suvning bo‘yiga boshladi. Suv deganimiz Chirchiq daryosining bir qo‘li bo‘lib, u katta shaharga kirayotganda Bo‘zsuv, kirib olgach esa Anhor deb ataladi. Bu yerda uni Zaxariqdaryo deyishadi. Chindanam kattakon, naq daryo deysan. Lekin daryodan nimasidir kamga o‘xshaydi, shu uchun bo‘lsa kerak, nomining ichida arig‘i bor. Qiziq-a, bir qarasang, daryo, bir qarasang, ariq! Ustiga ustak, zaxi ham mavjud. Suv oqqan joyda zax bo‘ladi-da! Ha, nima, Zaxariqdaryoga qarab, birov zax suvni, birov ariqni va yana boshqa birov daryoni ko‘rsa ko‘raversin. Hamma ham bu dunyoda niyatiga yarasha nasibasini olaverar ekan-da. Boshqa tomondan, o‘sha uchta “birov”ning bitta odamga aylanib, Zaxariqdaryoni hayotining uch pallasida uch xil ko‘rdim desa, nima deysiz? Masalan, yoshligida daryo, o‘rta yoshida ariq va keksayganda zax suvni ko‘ryapman, deb qolsa-chi?.. Bundan chiqdi, faylasuflar aytganlaridek, olam bu bizning tasavvurimizmi? Odamzod nimani ko‘rishni xohlasa, shunga ro‘baro‘ keladimi?.. Eh, bularning siriga kim yetibdiki, biz yetsak... Anglab yetganimiz birgina narsa shuki, dunyoda hamma narsa tashqaridan ko‘ringanidek emas, yo‘q!..

Matnda tasvirlangan suv — Chirchiq daryosining turli nomlar bilan atalishi (Bo‘zsuv, Anhor, Zaxariqdaryo) orqali ko‘p qatlamli ramziy ma‘no kasb etadi. Bir xil tabiiy hodisaning turli joyda turlicha nomlanishi inson idrokining nisbiyligini ko‘rsatadi. Bu yerda suvning o‘zi o‘zgarmaydi, lekin unga berilgan nom va baho o‘zgaradi. Demak, muallif shu orqali muhim g‘oyani ilgari suradi: voqelikdan ko‘ra unga bo‘lgan munosabat muhimroqdir.

Zaxariqdaryo obrazining o‘zi ayniqsa murakkab va ziddiyatli ramzdir. U bir tomondan “daryo” — kenglik, kuch va hayot oqimini anglatasa, boshqa tomondan “ariq” — torlik, cheklanganlik va oddiqlikni bildiradi. Bundan tashqari, “zax” elementi esa namlik, sovuqlik va biroz chirkinlik yoki yoqimsizlikni ifodalaydi. Shu tariqa bitta suv obrazi

o‘zida uch xil semantik qatlamni jamlaydi. Bu esa inson hayoti ham bir xil emasligini, balki turli bosqichlarda turlicha idrok qilinishini anglatadi.

Matndagi “birov zax suvni, birov ariqni, yana birov daryoni ko‘radi” degan fikr insonlarning dunyoni turlicha qabul qilishini ko‘rsatadi. Bu yerda subyektivlik masalasi markazga chiqadi: har kim voqelikni o‘z ruhiy holati, tajribasi va dunyoqarashiga qarab idrok etadi. Xususan, erning birgina "be'mani kun" so‘zini eshitishi bilan butun o‘y-xayoli chalkashib, umri ma'nosiz o‘tayotganday bo‘ldi. Bu so‘zni boshqacha idrok etish ham mumkin edi. Balki, xotini dugonasiga maqtangisi kelmagandir vahokazo. Yanada chuqurroq talqinda esa, bu uch xil qarash bitta insonning hayot bosqichlari bilan bog‘lanadi: yoshlikda hayot keng va imkoniyatlarga boy (daryo), o‘rta yoshda u torayib, aniq chegaralarga tushadi (ariq), keksalikda esa hayot sustlashib, ma'lum darajada ma'nosiz yoki sovuq ko‘rina boshlaydi (zax suv). Shu nuqtada matn falsafiy xulosaga olib keladi: “olam bizning tasavvurimizmi?” degan savol orqali muallif borliqning obyektiv emas, balki subyektiv idrok orqali shakllanishi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Bu fikr insonning ichki holati tashqi dunyoni qanday ko‘rishini belgilashini anglatadi. Ya’ni odam qanday qarasa, dunyo ham unga shunday ko‘rinadi.

Parchaning yakunidagi “dunyoda hamma narsa tashqaridan ko‘ringanidek emas” degan xulosa esa umumlashtiruvchi g‘oya sifatida xizmat qiladi. Bu fikr nafaqat suv obraziga, balki butun hayotga taalluqli bo‘lib, insonni chuqurroq o‘ylashga undaydi.

- Asti so‘rama, dugonajon, shunaqangi bema’ni kun bo‘ldiki, zerikkanimdan naq yorilib o‘lay deyapman. Bir nimalarni bahona qilib vahliyroq qaytsam kerak... Chiqqin-a oldimga kechqurun, hasratlashamiz...

Er eshik dastasini tutgan ko‘yi haykaldek qotdi. Allabir zamondan keyingina uni qo‘yvorib, ortga chekindi. Garangsirab qozonning boshiga bordi. Nima qilarini bilmay, g‘ayriixtiyoriy ravishda atrofida aylana boshladi. Xuddi xayolida aylanayotgan o‘sha bir juft so‘z kabi. Bu so‘zlar esa xonaga kirib qolgan bir juft xira pashshani eslatardi: miyaning ichida tinimsiz g‘ing‘illardi: BEMA’NI KUN! BEMA’NI KUN! BEMA’NI KUN!.. G‘IING, G‘IING, G‘IING...

Asarning ayni shu nuqtasida voqea keskin ichki burilishga kiradi: xotin tomonidan beparvo ohangda aytilgan “bema’ni kun” iborasi erkak ongida hal qiluvchi, hatto halokatli ta’sir uyg‘otadi. Bu yerda muallif oddiy so‘zning inson ruhiyatida qanday chuqur iz qoldirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Erning “eshik dastasini tutgan ko‘yi haykaldek qotib qolishi” tasviri ramziy ma’noga ega. Bu holat — shok, ruhiy falajlik va ichki zarbaning tashqi ifodasidir. Harakatning to‘xtashi ichki hayotning izdan chiqayotganidan darak beradi. Eshik esa o‘z-o‘zidan

ikki olam — tashqi va ichki dunyo o‘rtasidagi chegara sifatida talqin qilinadi. Demak, erkak aynan shu chegarada turib, o‘zining ichki inqiroziga duch keladi.

Keyingi holatda qahramonning “garangsirab qozon boshiga borishi” va nima qilishni bilmay aylanishi uning ongidagi tartibsizlikni ko‘rsatadi. Bu harakatlar mantiqsiz va maqsadsiz bo‘lib, ichki muvozanat buzilganini anglatadi. Ayniqsa, aylanish harakati alohida ramziy ahamiyatga ega: u fikrlarning bir joyda aylanib qolishi, insonning bir fikrdan chiqolmay qolishi holatini ifodalaydi.

Matnda eng kuchli ramzlardan biri — “bema’ni kun” iborasining pashshalarga qiyoslanishidir. Pashsha obrazi bu yerda tinimsiz takrorlanuvchi fikrlarning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. “Xira pashshalar” ifodasi esa bu fikrlarning yoqimsiz, bezovta qiluvchi va ongni egallab oluvchi xususiyatini kuchaytiradi. Ularning “miyada g‘ing‘illashi” esa psixologik bosimni yanada yaqqol tasvirlaydi.

“G‘ing” tovushining takrorlanishi badiiy jihatdan juda muhim. Bu tovush nafaqat eshitiladigan shovqin, balki ichki bezovtalik, ruhiy iztirob va fikriy zo‘riqishning ifodasidir. Takror esa bu jarayonning uzluksizligini bildiradi: qahramon bu fikrdan qutula olmaydi, u ongni to‘liq egallab oladi.

Shu o‘rinda muhim jihat shundaki, aslida aytilgan so‘z oddiygina baho bo‘lsa-da, u qahramon tomonidan mutlaq haqiqat sifatida qabul qilinadi. Natijada bu baho uning butun ongini egallab, ichki inqirozga sabab bo‘ladi. Demak, muallif bu orqali insonning tashqi ta’sirga qanchalik sezgir ekanini va ichki dunyoning qanchalik nozikligini ko‘rsatadi.

- U yoqda osh tagiga olib ketgandir, deb ham o‘ylamaysiz-a?!..

- Sen oshni aytasan, bu yoqda mening hayotim tagiga olib ketmoqchi-ku!. Osh tagiga olgan bo‘lsa olgandir, uni qaytadan boshlash mumkin, lekin umrni-chi? Agar u tagiga olsa, yangitdan boshlash mumkinmi? - degisi keldi. Judayam keldi.

Avvalo, “osh tagiga olib ketish” iborasi maishiy kontekstda oddiy holat — ovqatning kuyishi yoki buzilishi sifatida tushuniladi. Biroq erkak ongida bu ibora mutlaqo boshqa, chuqurroq ma’no kasb etadi. U bu holatni hayot bilan qiyoslaydi: osh buzilsa, uni qayta tayyorlash mumkin, ammo umr-chi? Shu yerda muallif kuchli kontrast yaratadi — tiklanadigan (osh) va tiklanmaydigan (umr) qadriyatlar o‘rtasidagi farq ochib beriladi.

Erkakning ichki monologi ayniqsa ahamiyatli: “oshni qaytadan boshlash mumkin, lekin umrni-chi?” degan savol aslida ekzistensial muammo sifatida yangraydi. Bu savolga javob yo‘q, va aynan shu javobsizlik qahramonning ruhiy iztirobini kuchaytiradi. U o‘z hayotining ham “tagiga olib ketilishi” mumkinligini his qiladi va bu uni chuqur tashvishga soladi.

Parchada yana bir muhim jihat — fikrning aytilmay qolishidir (“degisi keldi. Judayam keldi”). Bu holat ichki bosimni yanada oshiradi. Qahramon o‘z dardini ochiq

ifoda eta olmaydi, natijada u ichkarida jamlanib, yanada og‘irlashadi. Bu esa psixologik jihatdan ichki konfliktning kuchayishini bildiradi.

Shuningdek, xotinning tashqi jihatdan muloyim, shirinso‘z ko‘rinishi bilan erning ichki dunyosi o‘rtasida keskin kontrast mavjud. Tashqarida hayot davom etayotgandek, odatiy va sokin ko‘rinsa-da, erkakning ichida “sho‘rlash”, ya’ni ruhiy og‘riq kuchayib boradi. Bu holat uning ichki iztirobini vaqt o‘tishi bilan chuqurlashib boradigan jarayon sifatida ko‘rsatadi.

Asarda “tuz” obrazi markaziy ramzlardan biri bo‘lib, u ichki azob va pushaymonlikning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tuz vaqt o‘tgan sari kuchayib, qahramonning butun ongini zaharlaydi. Shu bilan birga, “siyoh” obrazi ham muhim ahamiyatga ega: u xotiralarni buzuvchi, ijobiy o‘tmishni salbiy talqinga aylantiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

“Yorug‘lik va qorong‘ilik” qarama-qarshiligi orqali hayotning ikki bosqichi ifodalanadi: avval baxt va sokinlik, keyin esa ruhiy inqiroz. Bu muvozanat tabiiy ketma-ketlikda emas, balki keskin buzilish bilan yuz beradi. Natijada qahramon o‘z o‘tmishini ham “bema’ni” deb qayta talqin qila boshlaydi.

Eng muhim jihat shundaki, “bema’ni” so‘zi oddiy baho emas, balki takrorlanuvchi fikrga aylanib, qahramon ongini to‘liq egallaydi. U pashshalar va tinimsiz “g‘ing‘illash” orqali tasvirlanib, ruhiy bezovtalik va ichki shovqinning ramziga aylanadi. Shu tariqa kichik bir so‘z butun hayot, xotira va ma’noni yemirib yuboruvchi kuchga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, inson ongidagi salbiy fikr qanday qilib asta-sekin kuchayib, butun hayotiy qadriyatlarni yo‘qotishga olib kelishini ko‘rsatadi. Muallif oddiy kundalik voqealar orqali ma’no, xotira va ruhiy barqarorlikning qanchalik nozik ekanini chuqur badiiy ifodalaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, barcha ramziy obrazlar yagona tizim sifatida ishlaydi va bir-birini to‘ldiradi. Dastlab oddiy baho sifatida aytilgan so‘z ichki jarayonlarni boshlab beradi. Keyinchalik bu jarayon tuz va siyoh obrazlari orqali kuchayadi, pashsha va tovushlar orqali esa psixologik bosim darajasiga yetadi.

Bu jarayon inson ongining qanday ishlashini ko‘rsatadi: salbiy fikr asta-sekin kengayib, butun hayotni qamrab oladi. Qahramonning fojeasi tashqi voqealarda emas, balki ichki talqinda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Ushbu hikoya inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beruvchi chuqur psixologik va falsafiy asardir. Unda oddiy kundalik voqealar orqali inson ongida yuz beradigan ma’no yo‘qolishi, ichki iztirob va hayotga bo‘lgan qarashlarning buzilishi badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalangan. Asar shuni isbotlaydiki, inson hayoti ko‘pincha tashqi voqealar bilan emas, balki ularni qanday qabul qilish bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Hamdani U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018.
- 2.Qo‘chqor N. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan,2019.

